



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍnda ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındağı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Utegenova Dilnoza Ayg‘ali qizi,
NMPI doktoranti
azizdilnoza9499@gmail.com

Annotation. Maqola maktabgacha ta’limda nutq o’sirish mashg‘ulotlarini ijodiy tashkil qilishning metodik jihatlarini tadqiq qilishga bag‘ishlangan. Unda maktabgacha ta’limda nutq o’sirish mashg‘ulotlarini tashkil qilishning nazariy-amaliy asoslari ochib berilgan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar nutqini o’sirish metodik muammo sifatida tavsiflangan.

Tayanch so‘zlar: maktabgacha ta’lim, nutq o’sirish, mashg‘ulot, maktabgacha ta’lim tashkiloti, muammo, nutqini o’sirish metodikasi, bolalar; ijod.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlar o‘qitish tizimida bolalarning mantiqiy tafakkuri va nutqiy faoliyati bilan bog‘liq ta’limiy muammolar shaxs kreativligini rivojlantirish yo‘nalishlari maxsus o‘rganilmoqda. Nutq o’sirish metodikasi sohasidagi xalqaro tajribalarda o‘quv materiallari mazmunining nutqiy ko‘nikmalar rivojidagi ahamiyatlilik darjasini hamda muloqot madaniyati takomilidagi samaradorligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Nutq o’sirishga qaratilgan aniq talablar asosida bolalarning nutq madaniyatini shakllantirish, madaniy ongini yuksaltirishga doir pragmatik va integrativ yondashuvlardan ijodiy foydalanimoqda.

Dunyoda kichik yoshdagи ta’lim oluvchilarining intellektual salohiyatini o’sirishga doir o‘quv-didaktik ta’minotni globallashuv davri pedagogikasi talablariga muvofiq holda takomillashtirish, nutqiy ko‘nikmalarni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan konstruktiv mashqlar tuzish, izohli lug‘atlar bilan ishslash, obrazli tafakkur va so‘z-mantiq xotirasini mustahkamlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Badiiy matn ustida ishslash orqali ijodiy va nutqiy potentsialini namoyon etish, kommunikativlik va nutqning emotsiyonalligi hamda ta’sirchanligini ta’minalashda konseptual yondashuvlar bolalarning nutq va tafakkuri integratsiyasiga muvofiq tarzda belgilanmoqda.

Inson o‘zining hayotidagi faoliyatida, shart-sharoitlarida, turmush tarzida nutq madaniyati bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham har bir inson o‘zining hatti-harakatiga, muloqotiga va maqsadiga tashqaridan turib qarashi lozim. Albatta, bunda egallagan bilimlar nutq faoliyatining maqsadli bo‘lishiga imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga bilimlar insonning haqiqatiga bo‘lgan munosabatini rivojlantirishga, turmushga, ongiga, hayotiga ta’sir etadi. Ya’ni bilimlar nutq faoliyatining, madaniyatining asosini tashkil etadi.

Bilimlar bolaning faoliyatida ma’naviy ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi.



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍNDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍÑ INTEGRACIYASÍ»

atamasındağı IV Xalıqaralıq ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

Demak, nutq madaniyatini shakllantirish bolalarning maktabda turli ijtimoiy fanlar asoslarini egallashi borasida paydo bo‘ladi. Natijada bolada nutq haqidagi bilimlar rivojlanadi. Uning ongi va bilimi turli sohalarga kirib dunyoni, koinotni zabit etishga intiladi. Bilim orqali nutq madaniyatiga erishadi. Hayotda, tajribada bilimli bilan bilimsizning madaniyati barobar emasligini ko‘p uchratish mumkin. Bilim-bolalarning axloqiy normalariga, aloqa va munosabatlarida namoyon bo‘ladi.

Shunday ekan bilimlarni o‘rganish va uni o‘stirish bola nutq madaniyatini shakllantirishda va tajribasida muhim ahamiyatga ega. Chunki, nutq madaniyatini shakllantirish shaxsda bilimlar, tushunchalar, e’tiqod, ongli intizom, tajriba faoliyatini yaxlit, bir butun holatda namoyon etadi.

Maktabgacha yoshdagি bolalarning nutq madaniyatini shakllantirish ko‘p jihatdan uning bilimiga bog‘liqdir.

Shunday ekan, har bir darsda bola tomonidan egallangan bilim, axloqiy qarashlar nutq madaniyatini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Chunki, bilim boylik manbai bo‘lib, kishining aqlini mustahkamlaydi, izzatini oshiradi, kamolga etkazadi, umrini boqiy qiladi.

Bilim inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilat hisoblanib, kishi zehnini, fikrini qilich kabi o‘tkir qiladi. Har bir shaxsni madaniyat, insoniyat, ma’rifat dunyosiga olib kiradi. Yomon odamlardan, buzuq ishlardan qaytaradi. Yaxshi xulq va odobli bo‘lishga, e’tiqodlarni oshirishga xizmat qiladi. Bilim kishilarни har yerda aziz va hurmatli qiladi. Kishi hayotidagi ishlarni haqiqiy to‘g‘ri yo‘lga soladi. Shuning uchun ham xalq orasida bilim orqali oliy nutq madaniyatiga ega bo‘lgan ulug‘likka va orzu-istiklarga erishgan buyuk kishilar qadrlanadilar.

Nutq madaniyatini shakllantirishda nutq his-tuyg‘ulari asosiy o‘rinni egallaydi. Nutq his-tuyg‘ulari, uning ta’sirchanligi asosan axloqiy bilimlar va e’tiqodlar, burch milliy g‘urur bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib inson shaxsida namoyon bo‘ladi.

Nutq his-tuyg‘ulari shaxsning ma’naviy faoliyatida, voqeа va hodisalarida, axloqiy jarayonida namoyon bo‘ladi. Nutq his-tuyg‘ulari kishilar xohish-irodasini axloqiy ong, axloqiy bilim asosida ifodalaydi. Nutq his-tuyg‘ulari insonlarning o‘z-o‘ziga, jamiyatga, hayotga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Sevgi, ishonch, his qilish, qayg‘urish, ko‘ra olmaslik, o‘z-o‘zini sevish, g‘ururlik, manmanlik, o‘ziga bino qo‘yish kabi ijobiy va salbiy xususiyatlarga ega bo‘lgan nutq his-tuyg‘ulari kundalik turmushimizda ko‘plab uchraydi. Demak, nutq his-tuyg‘ulari o‘zining kelib chiqishi va ahamiyati bilan ijtimoiy xarakterga ega. Ulardan ko‘pchiligi ijobiy va salbiy sifatlari bilan ajralib turadi va har bir insonning qiyofasini



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍnda ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındağı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

namoyon etadi. Nutq his-tuyg‘ulari o‘z mazmuniga ko‘ra ishonch, ong, bilim bilan chambarchas bog‘liqdir.

Nutq his-tuyg‘ulari jarayonida intilish, yaxshi ko‘rish, burch, mas’uliyat, ornomus kabi hislar kamol topadi. Bunday voqeа-hodisalar kishilarning tajribalarida, qat’iy faoliyatlarida ko‘plab uchraydi. Nutq his-tuyg‘ulari shaxsning odob muammolarini erkin rivojlanishiga, nutq madaniyatini shakllantirishga imkoniyat yaratadi.

Shuni aytish kerakki, nutq his-tuyg‘ularini shakllantirish har bir kishining shaxs sifatida rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Inson o‘zini bilish yoki anglashda, boshqarishda faqatgina uning bilimi yoki odobi yetarli emas, his-tuyg‘ular kishi faoliyatiga nisbatan aniq bilimlarni qo‘llashga suyanishini taqozo qiladi.

Nutq his-tuyg‘ulari insonni bilish, tushunish, tasavvur qilish kabi inson faoliyatidagi turli-tuman jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, shaxsning faolligini, bilimini oshiradi. Nutq his-tuyg‘ularini tarbiyalash tarbiyachilardan maxsus ish olib borishni, bola shaxsiga ta’sir etishning o‘ziga xos usullaridan foydalanishni, bolalarning turmush tarzi, hayot va nutq odobini tashkil etishni talab qiladi. Ta’lim jarayoni, nutq faoliyati, bola his-tuyg‘ularini shakllantirishning asosiy vositalari hisoblanadi. Bolalarning nutq his-tuyg‘ularini tarbiyalashda sog‘lom muhit, zavqli vaziyatni vujudga keltirish muhimdir. Chunki ana shunday sharoitda bolalarda odamiylik, mehribonlik, g‘amxo‘rlik, ittifoq, xayrixohlik kabi fazilatlar kamol topadi. Inson hayotida namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlarni, nutq madaniyatini o‘z xatti-harakatlarini, ongi bilan taqqoslaydi. Shuni aytish kerakki, nutq his-tuyg‘ulari kishining xohish va irodasida, turmushida, jamoadagi vaziyatda, tarbiyachi talablarini amalga oshirishda, bolaning o‘z o‘rni va mavqeini anglashida ifodalananish bilan birga nutq faoliyatining asosini tashkil etadi. Bu o‘rinda tarbiyachilarning bolalar bilan o‘tkaziladigan muloqotlari muhim ahamiyatga ega. Chunki muloqot davomida bolalar nutq madaniyati masalalariga bog‘liq bir qancha axborot oladilar. Bolalar tarbiyachilari bilan muloqotga kirishar ekanlar, o‘z onqlarida kishilarning nutq his-tuyg‘ularini, xulqlaridagi muayyan namunalarni tasavvur qiladilar. Ijobiy va salbiy tomonlarini muhokama qilib o‘z xatti-harakatlari va munosabatlari, axloqiy norma va qoidalarini shakllantiradilar.

Nutq madaniyatini shakllantirishda kishining xulq-atvori muhim o‘rinni egallaydi. Xulq-atvor nutq madaniyatining muhim qismi bo‘lib, u tartib-intizomda, hayot normalarini bajarishda, jamiyatga, mehnatga, odamlarga nisbatan bildiradigan munosabatda namoyon bo‘ladi.



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍNDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍÑ INTEGRACIYASÍ»

atamasındağı IV Xalıqaralıq ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

Kishining qay darajada nutq madaniyatiga ega ekanligini uning xulq-atvoridan bilish mumkin. Bu uning kiyinishida, xatti-harakatida, didi, fahm-farosatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli Qarori// www.lex.uz
2. Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 18-iyundagi 1-MH sonli “Ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talabları” // www.lex.uz
3. Mirziyoyev Sh. M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” –T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
4. «Ilk qadam». Maktabgacha ta’lim muassasalari davlat o‘quv dasturi. Tuzuvchilar: I.V.Grashova, L.G.Evstafeva, D.T.Mahmudova, Sh.B.Nabixonova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova. – T.: MTV, 2018. – 69 bet.